

**O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi  
Yuristlar malakasini oshirish markazi**

**R.R. SHAKUROV  
Z.Z. RAXMONOV**

**MA’MURIY TARTIB-TAOMILLARNI AMALGA  
OSHIRISHGA OID MASALALAR TO‘PLAMI**

(O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy tartib-taomillar  
to‘g‘risida”gi Qonuni asosida)



**TOSHKENT**

**UO‘K 342.9(575.1)**

**Sh-19**

O‘quv-amaliy qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish markazi O‘quv va ilmiy-uslubiy kengashi majlisida 2023-yil 23-martda muhokama qilingan va chop etishga tavsiya etilgan (7-sonli bayonnoma).

**Shakurov R.R., Raxmonov Z.Z.** Ma‘muriy tartib-taomillarni amalga oshirishga oid masalalar to‘plami: O‘quv-amaliy qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish markazi, 2023. – 56 b.

**Taqrizchilar:** yuridik fanlar doktori (DSc) D.Raximov  
yuridik fanlari nomzodi, professori B.Akramxodjayev

O‘quv-amaliy qo‘llanmada davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan ma‘muriy tartib-taomillarni qo‘llash va rioya qilishda kelib chiqishi mumkin bo‘lgan holatlar bilan bog‘liq nazariy topshiriqlar, nazorat savollari, test va amaliy masalalar keltirilgan.

Oliy yuridik ta‘lim o‘quv muassasalari talabalari va kursantlari hamda yuridik sohaga oid malaka oshirish ta‘lim muassasalari tinglovchilari uchun mo‘ljallangan.

© *R.R.Shakurov, Z.Z.Raxmonov, 2023*

© *Yuristlar malakasini oshirish markazi, 2023*

## KIRISH

Nazariy bilimlarning mustahkamlashda amaliy ko'nikmarni rivojlantirishga qaratilgan amaliy mashg'ulotlar ahamiyatlidir.

Mazkur o'quv-amaliy qo'llanmada keltirilgan, ya'ni amaliy mashg'ulotlarga doir nazariy topshiriqlarni bajarish, nazorat savollariga javob berish, test va amaliy masalalarni yechish, davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan ma'muriy tartib-taomillarni qo'llash va rioya qilishda kelib chiqishi mumkin bo'lgan vaziyatlarga oid amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Xususan, nazariy topshiriqlarni bajarish, mazkur sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlar va yuridik adabiyotlarda keltirilgan sharhlarni o'rganishni talab etadi. Bu o'z navbatida, qo'llanmada keltirilgan nazorat savollariga javob berishga imkon yaratadi.

Test topshiriqlari, savol va mazkur savolga oid bitta to'g'ri javob hamda uchta muqobil noto'g'ri javobdan tashkil topgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi qonunchiligi normalarida keltirilgan tushuncha va qoidalarning mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan.

Amaliy masalalar ma'muriy tartib-taomillar bilan bog'liq munosabatlarni inobatga olgan holda ishlab chiqilgan yohud amaliyotdan olingan aniq misollar asosida tayyorlangan.

Nazorat savollariga javob berish, test topshiriqlarini yechish va amaliy masalalarni bajarish uchun O'zbekiston Respublikasi "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari, sohaviy normativ-huquqiy aktlar, shuningdek, to'planning yakunida keltirilgan boshqa normativ-huquqiy hujjatlar va yuridik adabiyotlarga murojaat qilish tavsiya etiladi.

O'quv-amaliy qo'llanma O'zbekiston Respublikasi "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonunning boblariga mos tarzda tuzilgan.

# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MA’MURIY TARTIB- TAOMILLAR TO‘G‘RISIDAGI QONUNI

## I-bob. UMUMIY QOIDALAR

### Topshiriq:

**Quyidagi normativ-huquqiy hujjatlar va yuridik adabiyotlarni o‘rganish:**

1. O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 8-yanvardagi O‘RQ-457-son “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonunning 1-19-moddalari;
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-avgustdagi PF-6044-son “Litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni;
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 9-maqsadi;
4. Validinov A. Ma’muriy tartib-taomillar tushunchasi/  
<https://cyberleninka.ru/article/n/mamuriy-tartib-taomillar-tushunchasi>
5. Davletov R. Ma’muriy tartib-taomillarni takomillashtirish bilan bog‘liq islohotlar jamiyatga nima beradi?//Yangi O‘zbekiston gazetasi/  
<https://yuz.uz/news/mamuriy-tartib-taomillarni--takomillashtirish-bilan-bogliq--islohotlar-jamiyatga-nima-beradi>

### Nazorat savollari:

1. “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonunning maqsadi nima?
2. “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonunning asosiy vazifalariga nimalar kiradi?
3. “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonunning qo‘llanilish sohalarini sanab o‘ting.
4. “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi qonunchiligini qo‘llashga oid talablar, chegarasi va shartlari?
5. “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonuniga asosan manfaatdor shaxs kim?
6. Ma’muriy ixtiyoriylik (diskretsion vakolat) deganda nima tushuniladi?

7. “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonuniga ko‘ra ma’muriy ish yuritish deganda nima tushuniladi?

8. Ma’muriy tartib-taomil deganda nima tushuniladi?

9. Ma’muriy tartib-taomillarning asosiy prinsiplarini nimalar tashkil etadi?

10. “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonun qaysi sohalarda qo‘llaniladi?

11. “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonuni qaysi sohadagi munosabatlarga qo‘llanilmaydi?

12. Ma’muriy tartib-taomillar prinsiplarining qo‘llanilishiga oid qanday talablar mavjud?

### **Test topshiriqlari:**

1. “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonunning tatbiq etiladigan sohalardan birini aniqlang.

- a) davlat xizmatlarini ko‘rsatish
- b) normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash
- c) majburiy to‘lovlarni undirish
- d) davlat xizmatini o‘tash

2. Qaysi sohada “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonuni tatbiq etilmaydi?

- a) ruxsat berish
- b) litsenziya berish
- c) sud ishini yuritish
- d) ro‘yxatdan o‘tkazish

3. Ma’muriy organlarning ma’muriy-huquqiy faoliyatini tartibga soluvchi protsessual qoidalar qanday nomlanadi?

- a) ma’muriy-huquqiy faoliyat
- b) ma’muriy-huquqiy jarayon
- c) protsessual tartib-taomillar
- d) ma’muriy tartib-taomillar

4. Ma'muriy ishni mazmunan hal etmaydigan hujjat qanday nomlanadi?
- a) protsessual hujjat
  - b) ma'muriy hujjat
  - c) ma'muriy buyruq
  - d) ma'muriy talab
5. Ma'muriy ish yuritishni nima tashkil etmaydi?
- a) ishni ko'rib chiqish
  - b) majburiy chorani qo'llash
  - c) hujjatni qabul qilish
  - d) hujjatni ijro etish
6. Ma'muriy tartib-taomillarning asosiy prinsiplardan birini aniqlang.
- a) qat'iyatlilik
  - b) zarurlik
  - c) mutanosiblik
  - d) majburiylik
7. Ma'muriy tartib-taomillar O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshirilishi kerak degan qoida qaysi prinsipga mansub?
- a) qonuniylik
  - b) ishonchlilik
  - c) tinglanish
  - d) mutanosiblik
8. Ma'muriy ish yuritishda ma'lumotlar aksi isbotlanmaguniga nima deb hisoblanadi?
- a) nomaqbul
  - b) sohta
  - c) asoslanmagan
  - d) ishonchli

9. Ma'muriy tartib-taomillar manfaatdor shaxslar uchun qanday bo'lishi lozim?

- a) murakkab
- b) tushunarli
- c) rasmiy
- d) majburiy

10. Ma'muriy organ manfaatdor shaxslarning ishtirokisiz ish yuritishi qaysi prinsipni tashkil etadi?

- a) "bir bog'cha"
- b) "bir oyna"
- c) "bir eshik"
- d) "bir darcha"

### **Amaliy masalalar:**

#### **1-masala**

Davlat xizmatlari mazkariga talabgor fuqaro K. Murojaat qilib, davlat xizmatlari markazlarini ma'muriy organ sifatida "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonunida belgilangan muddatda xizmat ko'rsatishni so'radi. Ma'muriy organ, mazkur qonun faqat litsenziya, ruxsat berish, ro'yxatdan o'tkazish tartib-taomillariga taaluqligini aytib fuqaro K.ning iltimosini rad etdi.

**Savol:** Davlat xizmatlari markazlari ma'muriy organ hisoblanadimi va mazkar harakatiga huquqiy baho bering.

Javobingizni O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq asoslab bering.

#### **2-masala**

Jinoyat ishlari bo'yicha Yunusobod sudiga murojaat etgan fuqaro X. uning arizasi ko'rib chiqilmaganligi sababli, yuqori turuvchi suddan O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq uning shikoyatini ko'rib chiqilishini so'radi.

**Savol:** Fuqaro X.ning iltimosnomasi asoslimi?

Javobingizni O‘zbekiston Respublikasining “Ma‘muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq asoslab bering.

### **3-masala**

Dorixona ochish uchun kelib, murojaat bo‘yicha ma‘muriy ish yuritish jarayonida ma‘muriy organ manfaatdor shaxsdan yozma shakldagi yashash joyidan va soliqdan qarzdorlik yo‘qligi haqidagi ma‘lumotnoma taqdim etishni so‘radi. Manfaatdor shaxs bunday ma‘lumotlarni taqdim etish unga qiyinchilik tug‘dirishini ta‘kidlab, elektron ravishda olishni iltimos qildi.

**Savol:** Mazkur holda ma‘muriy organ qaysi prinsipga rioya qilmagan?

Javobingizni O‘zbekiston Respublikasining “Ma‘muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq asoslab bering.

### **4-masala**

Fuqaro S. Narpay tuman pensiya jamg‘armasiga murojaat qilib (pensiyaga chiqish masalasi), barcha kerakli hujjatlarni, shu jumladan mehnat daftarchasini ham taqdim qilgan. Pensi jamg‘armasi fuqaroga hozirgi kunda mehnat daftarchasi haqidagi ma‘lumotlarni elektron olish mumkinligini, biroq ish stajini arxiv ma‘lumotlarni orqali tasliqlash kerakligini ayti. Fuqaro S. tuman arxivga borgan holda mehnat daftarchasidagi ish stajini tasdiqlashni so‘radi.

**Savol:** Mazkur holda ma‘muriy organ qaysi prinsipga rioya qilmagan?

Javobingizni O‘zbekiston Respublikasining “Ma‘muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq asoslab bering.

### **5-masala**

2018-yilda Toshkent shahar hokimi Amir Temur shoh ko‘chasidagi 45-ko‘p qavatli turar joy binosi joylashgan yer uchastkasini tijorat uyi qurish uchun xususiy korxonaga ajratish to‘g‘risida qaror qabul qildi. Qaror uy-joy mulkdorlari bilan kelishmasdan qabul qilingan. Sud jarayonida buzilishga tushgan 45-uyning tarixiy va madaniy ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Madaniyat vazirligining qarori bilan bino madaniy meros obyekti deb topilib, arxitektura yodgorligi deb e‘lon qilindi. Hokimning qarori davlatning madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish manfaatlariga zid bo‘lganligi sababli rasmiy ravishda qonunga xilof bo‘lib chiqdi. Aslida esa hokimning



fuqarolarga o‘z fikrini bildirish imkoniyatini bermaganligi va bu orqali holatni haqiqiy manzarasini bilmaganligi uchun qaror qonunga xilof tarzda qabul qilingan bo‘lib chiqdi.

**Savol:** Ma‘muriy organ harakatlariga baho bering. Mazkur holda ma‘muriy tartib-taomillarning prinsiplari buzildimi?

Javobingizni O‘zbekiston Respublikasining “Ma‘muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq asoslab bering.

### **6-masala**

Ma‘muriy organ, ma‘muriy ishga doir manfaatdor shaxs J.dan qo‘shimcha ma‘lumotni so‘radi. Manfaatdor shaxs J. ushbu ma‘lumotni ilgari berganligini ta‘kidladi va talabni bajarmadi.

**Savol:** Manfaatdor shaxs J. harakatlari to‘g‘rimi? Ma‘muriy organ bunday talabni qo‘yishi asoslimi?

Javobingizni O‘zbekiston Respublikasining “Ma‘muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq asoslab bering.

### **7-masala**

Sug‘urta faoliyati bilan shug‘ullanishni so‘rab A va B shaxslar O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug‘urta bozorini rivojlantirish agentligi murojaat qilgan. Ma‘muriy organ, bir necha jiddiy holatlarning mavjudligini e‘tiborga olib manfaatdor shaxslardan biri bo‘lgan, B.ga sug‘urta faoliyati bilan shug‘ullanish uchun litsenziya berdi va A.ning arizasini bir qator sabablar bilan rad etdi. Manfaatdor shaxs A. bu holatdan norozi bo‘ldi.

**Savol:** Ma‘muriy organ harakati to‘g‘rimi? Mazkur holatda qanday ma‘muriy tartib-taomillarning prinsipi qo‘llaniladi?

Javobingizni O‘zbekiston Respublikasining “Ma‘muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq asoslab bering.

### **8-masala**

Manfaatdor shaxs V. tomonidan taqdim etilgan dalillar to‘liq emasligi to‘g‘risida xulosa qilinib, ma‘muriy organ o‘z tashabbusi bilan qo‘shimcha dalillar so‘rab, boshqa davlat organlariga murojaat etdi.

**Savol:** Ma'muriy organ harakati to'g'rimi? Mazkur holatda qanday ma'muriy tartib-taomillarning prinsipi qo'llaniladi?

Javobingizni O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq asoslab bering.

### **9-masala**

Ish ma'muriy organ tomonidan ko'rib chiqilayotgan vaqtda holat bo'yicha bir nechta aniqlashtiriladigan holatlar mavjudligi aniqlandi. Shu vaqtda manfaatdor shaxs fuqaro A. ma'muriy organ tomonidan ekspertiza tayinlanishini talab qildi. Biroq ishni ko'rayotgan ma'muriy organ ish ko'rish boshlanganligini, endi ekspertiza tayinlashga kech bo'lganligini aytdi. Bundan fuqaro A. norozi bo'lib ma'muriy sudga murojaat qildi.

**Savol:** Ma'muriy organ harakatiga huquqiy baho bering.

Javobingizni O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq asoslab bering.

### **10-masala**

Ma'muriy tartib-taomillar prinsiplariga nomuvofiq deb, manfaatdor shaxs X. ma'muriy organdan ma'muriy hujjatni qayta ko'rib chiqishni iltimos qildi. Ma'muriy organ manfaatdor shaxs X.ning iltimosini rad etdi.

**Savol:** Manfaatdor shaxs X.ning iltimosi asoslimi? Ma'muriy hujjatlar va ma'muriy harakatlar ma'muriy tartib-taomillarning qanday prinsiplariga muvofiq bo'lishi kerak?

Javobingizni O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq asoslab bering.

## **II-bob. MA'MURIY TARTIB-TAOMILLARNING UMUMIY QOIDALARI**

### **Topshiriq:**

**Quyidagi normativ-huquqiy hujjatlar va yuridik adabiyotlarni o'rganish:**

1. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 8-yanvardagi O'RQ-457-son "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonunning 20-40-moddalari.

2. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 14-iyuldagi O‘RQ-701-son “Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonunning 1-12-moddalari;

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-avgustdagi PF-6044-son “Litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.

### **Nazorat savollari:**

1. Ma‘muriy ishlarning taalluqliligi deganda nima tushuniladi?
2. Ma‘muriy organlar o‘rtasidagi idoralararo hamkorlik deganda nimani tushunish mumkin?
3. Ma‘muriy organning ko‘maklashish to‘g‘risidagi so‘rov haqida nimalarni bilasiz?
4. Ma‘muriy ish yuritish ishtirokchilariga kimlar kiradi?
5. Ma‘muriy harakat daxldor bo‘lgan yoxud daxldor bo‘lishi mumkin bo‘lgan shaxs qanday nomlanadi?
6. Ma‘muriy ish yuritishda vakillik deganda nima tushuniladi?
7. Manfaaddor shaxslar qanday huquqlarga ega?
8. Ma‘muriy organda ma‘muriy ish yuritish qaysi tilda olib boriladi?
9. Ma‘muriy ish yuritishda huquqiy vorislik deganda nima tushuniladi?
10. Ma‘muriy ishni hal qilishga ko‘maklashuvchi shaxslar sifatida kim jalb qilinishi mumkin?
11. Ma‘muriy organning mansabdor shaxsi ma‘muriy organ nomidan ma‘muriy ish yuritishda ishtirok etishga qaysi hollarda haqli emas?
12. Ma‘muriy ish yuritishdan ma‘muriy organning mansabdor shaxsini rad qilish to‘g‘risida arizani kimlar berishga haqli?
13. Ma‘muriy ish yuritishda dalillar sifatida nimalar tan olinadi?
14. Ma‘muriy ish yuritish muddati uzaytirilishi mumkinmi?
15. Agar ma‘muriy ish yuritish muddati dam olish (bayram) kunida tugasa, bunda qaysi kun muddatning tugash kuni deb hisoblanadi?
16. Qaysi hollarda ma‘muriy organ ma‘muriy ish yuritishni to‘xtatib turishga haqli?
17. Ma‘muriy ish yuritishni to‘xtatib turish to‘g‘risidagi xabar manfaaddor shaxslarga necha kun ichida yuborilishi kerak?

18. Qaysi xolat ma'muriy ish yuritish muddatlari o'tishining to'xtashiga olib keladi?

19. To'xtatib turilgan ma'muriy ishni tiklash uchun nima asos bo'lishi mumkin?

20. Ma'muriy organ qaysi hollarda ma'muriy ish yuritishni tugatishi shart?

### **Test topshiriqlari:**

1. Ma'muriy organlar nimaga asoslanib o'z vakolatiga kiritilgan masalalar yuzasidan ma'muriy ish yuritishni amalga oshiradilar?

- a) yo'riqnomaga
- b) buyruqqa
- c) qonunchilikka
- d) nizomga

2. Idoralararo hamkorlik qonunchilikda belgilangan tartibda ma'muriy organning ko'maklashish to'g'risidagi qanday hujjat asosida amalga oshiriladi?

- a) so'rovnoma
- b) shikoyat
- c) iltimosnoma
- d) talabnoma

3. "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, qabul qilinayotgan ma'muriy hujjat o'ziga qaratilgan shaxs qanday nomlanadi?

- a) adresat
- b) fuqaro
- c) shaxs
- d) inson

4. "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, qonuniy manfaatlariga ma'muriy hujjatga daxldor bo'lgan shaxs qanday nomlanadi?

- a) birinchi shaxs
- b) uchinchi shaxs

- c) ma'muriyat
- d) adresat

5. Yuridik shaxslar ma'muriy ish yuritishda kimlar orqali ishtirok etadi?

- a) prokuror
- b) faqat tashkilot rahbari
- c) vakillar
- d) sud

6. Manfaaddor shaxslar majburiyatlaridan birini aniqlang?

- a) ma'muriy ish materiallari bilan tanishish
- b) protsessual huquqlardan vijdonan foydalanishi
- c) rad qilish to'g'risida arz qilish
- d) dalillarni tekshirishda ishtirok etish

7. Ma'muriy ish yuritishda guvohning og'zaki ko'rsatuvlari qanday hujjatda bayon etiladi?

- a) audioyozuvda
- b) tilxat
- c) ma'lumotnoma
- d) bayonnoma

8. Ma'muriy organ ma'muriy ishga dalilni qanday nuqtayi nazaridan baholashi mumkin emas?

- a) subyektiv
- b) ishonchlilik
- c) daxldorlik
- d) maqbullik

9. Ma'muriy organ mumkin qadar qancha muddatda ariza ma'muriy organda ro'yxatga olingan kundan e'tiboran ma'muriy ishni ko'rib chiqishi kerak?

- a) o'zoq muddatda
- b) qisqa muddatda

- c) muddat belgilanmagan
- d) bu masala ma'muriy organga xavola

10. Adresat ma'muriy ish yuritish boshlanganligi to'g'risida xabardor qilingan kundan e'tiboran necha kundan kechiktirmay ma'muriy ishni ko'rib chiqishi kerak?

- a) qirq ish kuni
- b) o'ttiz ish kuni
- c) ellik ish kuni
- d) ikki oy ichida

11. Ma'muriy ish yuritishni to'xtatib turish haqidagi xabar qanday hujjat deb hisoblanadi?

- a) oddiy xat
- b) kundalik hujjat
- c) protsessual hujjat
- d) ma'muriy hujjat

12. Ma'muriy ish yuritishni tiklash to'g'risidagi xabarnoma manfaatdor shaxslarga qancha muddat ichida yuboriladi?

- a) o'n ish kuni ichida
- b) uch ish kuni ichida
- c) besh ish kuni ichida
- d) bir ish kuni ichida

13. Ma'muriy ish yuritishni tugatish qanday hujjat bilan rasmiylashtiriladi?

- a) qaror hujjati
- b) kundalik hujjat
- c) protsessual hujjat
- d) xulosa hujjati

14. Ma'muriy ishni ko'rib chiqish bilan bog'liq xarajatlar qaysi organ zimmasida bo'ladi?

- a) davlat organi
- b) manfaatdor shaxs
- c) ma'muriy organ
- d) vakolatli vazirlik

15. Ma'muriy organlarga beriladigan arizalardan davlat boji yoki yig'im undiriladimi?

- a) undiriladi
- b) undirilmaydi
- c) bu masala ma'muriy organga havola
- d) mazkur masala tartibga solinmagan

16. Ma'muriy shikoyatlar uchun davlat boji va yig'im undiriladimi?

- a) undiriladi
- b) undirilmaydi
- c) bu masala ma'muriy organga havola
- d) mazkur masala tartibga solinmagan

### **Amaliy masalalar:**

#### **1-masala**

Veterinariya faoliyati uchun litsenziyani bekor qilish masalasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasida ko'rib chiqilayotgan vaqtda, ma'muriy ishga oid ma'lumotlarga ega bo'lgan shaxsni ma'muriy ish yuritishda ishtirok etishini

so'rab, adresat ma'muriy organga murojaat etdi. Ma'muriy organ ma'muriy ish yuritishda uchinchi shaxslarning ishtiroki faqat majburiy ravishda jalb etilishini mumkinligini ta'kidlab, iltimosni rad etdi.

**Savol:** Ma'muriy organ harakatiga huquqiy baho bering.

Javobingizni O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq asoslab bering.

## 2-masala

Fuqaro G. xususiy korxonada bo'lim boshlig'i lavozimidan ishlayotganligini ta'kidlab, ushbu korxonada vakili sifatida ma'muriy ish yuritishda ishtirok etishini ma'lum qildi. Ma'muriy organ fuqaro G.ga uning ishda ishtirok etmasligini ta'kidladi.

**Savol:** Ma'muriy ishda ishtirok etish uchun qanday talablar qo'yiladi? Ma'muriy organ harakatiga huquqiy baho bering.

Javobingizni O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq asoslab bering.

## 3-masala

Manfaatdor shaxs N. birja faoliyati uchun litsenziya olish bo'yicha murojaat qilgan bo'lib, ma'muriy ish materiallaridan ko'chirmalar olmoqchi bo'lib iltimos bilan ma'muriy organga murojaat etdi. Ma'muriy organ iltimosni rad qildi.

**Savol:** Ma'muriy organ harakatlariga baho bering. Manfaatdor shaxslarning qanday huquqlarga ega?

Javobingizni O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq asoslab bering.

## 4-masala

Turizm faoliyatini litsenziyalash jarayonida, ma'muriy organ fuqaro G.dan turoperator xizmatlarini sertifikatlashni talab qildi. Fuqaro G. ma'muriy organ harakati ustidan shikoyat qildi.

**Savol:** Fuqaro G.ning shikoyati asoslimi?

Javobingizni O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-avgustdagi PF-6044-son "Litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq asoslab bering.

## 5-masala

Ionlashtiruvchi nurlanish manbalari muomalasi sohasidagi faoliyat uchun litsenziya olish bo'yicha ma'muriy ish materiallari bilan tanishish



chog'ida, manfaatdor shaxslardan biri fuqaro Ch. tarjimon xizmatidan foydalanmoqchi bo'ldi. Ma'muriy organ ma'muriy ishga aloqasi yo'q shaxslar ish materiallari bilan tanishishga huquqi yo'q deb, fuqaro Ch.ga tarjimon xizmatidan foydalanishga ruhsat bermadi.

**Savol:** Ma'muriy organ harakatiga huquqiy baho bering.

Ma'muriy organ Javobingizni O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq asoslab bering.

### **6-masala**

Ma'muriy hujjat qabul qilinguniga qadar manfaatdor shaxslardan biri ma'muriy ish yuritishdan chiqib ketdi. Mazkur manfaatdor shaxs uning o'rniga voris ishtirok etishini ta'kidladi. Ma'muriy ish yurituvchi mansabdor shaxs, huquqiy vorislikka faqat ma'muriy organ ruxsati bilan yo'l qo'yilishi mumkinligini ta'kidladi.

**Savol:** Ma'muriy ish yurituvchi mansabdor shaxs haqmi?

Javobingizni O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq asoslab bering.

### **7-masala**

Kosmik texnologiyalarni qo'llovchi tashkilot faoliyati uchun litsenziya bo'yicha ma'muriy ishni hal qilishda ko'maklashish uchun ekspert jalb qilindi. Ma'muriy ish yuritish jarayonida ekspert tomonidan noto'g'ri xulosalari berganlik xolati aniqlandi. Manfaatdor shaxs L. ekspert xulosasidan norozilik bildirdi.

**Savol:** Ekspert harakatlariga baho bering. Ekspert noto'g'ri xulosa berganlik uchun javobgarlikka tortiladimi?

Javobingizni O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq asoslab bering.

### **8-masala**

Ma'muriy organning mansabdor shaxsi tomonidan muayyan harakatlarning amalga oshirilishi faktini guvohlantirish uchun guvoh jalb qilindi. Guvohning ma'muriy ishda ishtirok etuvchi ikkinchi manfaatdor shaxs bilan quda-andachilik munosabatida ekanligini ta'kidlab, manfaatdor shaxs F.

guvohni ishga jalb qilinishini raddiya bildirdi. Ma'muriy organning mansabdor shaxsi raddiyani qabul qilmadi.

**Savol:** Ma'muriy organ harakatiga huquqiy baho bering. Manfaaddor shaxs F.ning talabi to'g'rimi?

Javobingizni O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq asoslab bering.

### **9-masala**

O'simlik dunyosi obyektlaridan maxsus foydalanish uchun ruxsatnoma berish bo'yicha ma'muriy ishda manfaaddor shaxs ishga jalb qilingan mutaxassisni rad qilish to'g'risidagi ariza berdi. Ma'muriy organ mansabdor shaxsi arizani qanoatlantirdi va ma'muriy ishni ko'rib chiqishni to'xtatmasdan davom etdi.

**Savol:** Ma'muriy organning mansabdor shaxs harakatiga huquqiy baho bering. Rad qilishga oid qonunchilikda qanday shartlar mavjud?

Javobingizni O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq asoslab bering.

### **10-masala**

O'zbekiston Respublikasining Qizil kitobiga kiritilgan kamyob va yo'qolib ketish xavfi ostidagi o'simlik turlarini tabiiy muhitdan olish uchun ruxsatnoma olish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Tabiat resurslari vazirligiga ariza kelib tushdi. Ma'muriy organ ma'muriy ish yuritilishi haqida manfaaddor shaxsni manziliga xabar yubordi. Manfaaddor shaxs o'z manzili o'zgartirganligi sababli xabarni olmadi va xabarnoma olmaganligi tufayli ma'muriy organ ustidan shikoyat qildi.

**Savol:** Manfaaddor shaxs haqmi?

Javobingizni O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq asoslab bering.

### **11-masala**

Manfaaddor shaxs A. tomonidan "davlat o'rmon fondiga kirmaydigan zaxira yerlarida pichan o'rish va chorva mollarini o'tlatish uchun ruxsatnomani bekor qilish" bo'yicha ma'muriy ish ko'rilayotgan vaqtida

ma'muriy organgan dalil sifatida fotosurat taqdim qildi. Taqdim etilgan fotosuratlarning rangli tasvirda bo'lmaganligi sababli, ma'muriy ishni ko'rib chiqayotgan mansabdor shaxs ularni qabul qilishni rad etdi.

**Savol:** Ma'muriy organning mansabdor shaxs harakatiga huquqiy baho bering.

Javobingizni O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq asoslab bering.

### **12-masala**

Ma'muriy organ tashabbusi bilan qabul qilingan ma'muriy hujjat bo'yicha ma'muriy ish yuritish boshlanganligi to'g'risida xabardor qilingan adresat, uning arizasi topshirilganligiga o'n kun bo'lganligini, biroq shu kungacha ma'muriy ishning ko'rib chiqilmaganligini ta'kidlab yuqori turuvchi organga shikoyat bilan murojaat etdi.

**Savol:** Adresat shikoyati asoslimi? Ma'muriy organ qaysi muddatda ma'muriy ishni ko'rib chiqishi va ma'muriy hujjatni qabul qilishi lozim?

Javobingizni O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq asoslab bering.

### **13-masala**

Manfaatdor shaxs L. tomonidan yetishmayotgan hujjatlarni taqdim etilishi uchun ma'muriy organ ma'muriy ish yuritishni to'xtatib turishni qaror qildi va uch kun o'tgach manfaatdor shaxsni xabardor qildi. Ma'muriy organ tomondan qonun buzilganligini ta'kidlab, manfaatdor shaxs L. ishni yuritishni davom etishni talab qildi.

**Savol:** Manfaatdor shaxs L.ning shikoyati va talabi asoslimi? Ma'muriy ish yuritishni to'xtatib turish haqidagi xabar qanday hujjat deb, hisoblanadi?

Javobingizni O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq asoslab bering.

### **14-masala**

Ma'muriy ish yuritish uchun asos bo'lgan ariza uni taqdim etgan shaxs tomonidan chaqirib olindi. Shunga qaramasdan ma'muriy organ ma'muriy ish

yuritilishi davom etib, ikkinchi manfaatdor shaxs foydasiga ma'muriy hujjat qabul qiladi.

**Savol:** Ma'muriy organ harakatiga huquqiy baho bering.

Javobingizni O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq asoslab bering.

### **15-masala**

Arizasiga ko'ra, ma'muriy hujjat qabul qilganligi uchun manfaatdor shaxs M.dan davlat boji (yig'im) to'lash so'raldi. Ma'muriy hujjat o'zining foydasiga chiqarilgan bo'lishiga qaramasdan fuqaro M. ariza bo'yicha ma'muriy ish yuritish ma'muriy organning tashabbusi bilan amalga oshirilganligini ta'kidlab, davlat boji (yig'im)ni to'lashdan bosh tortdi.

**Savol:** Manfaatdor shaxs M. haqmi?

Javobingizni O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq asoslab bering.

## **III-bob. MA'MURIY ISH YURITISH**

### **Topshiriq:**

**Quyidagi normativ-huquqiy hujjatlar va yuridik adabiyotlarni o'rganish:**

1. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 8-yanvardagi O'RQ-457-son "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonunning 41-51-moddalari.

2. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 14-iyuldagi O'RQ-701-son "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonunning 13-47-moddalari;

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-avgustdagi PF-6044-son "Litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.

### **Nazorat savollari:**

1. Ma'muriy ish yuritishni boshlash uchun nimalar asos bo'ladi?

2. Ma'muriy ishni boshlash uchun ma'muriy organning tashabbusi asos bo'lsa, ma'muriy ish yuritish qaysi paytdan e'tiboran boshlangan hisoblanadi?

2. Manfaatdor shaxsning arizasining mazmuniga qo'yiladigan talablarni sanab o'ting.

3. Ma'muriy organga beriladigan ariza kim tomonidan imzolanishi mumkin?

4. Ma'muriy organda arizani ro'yxatdan o'tkazish qanday holatlarda rad etilishi mumkin?

5. Ma'muriy organga ariza berish uchun zarur bo'lgan axborot kimlar tomonidan taqdim etiladi?

6. Ma'lumotnoma tarzidagi axborot qoida tariqasida nimalarga oid masalalar yuzasidan taqdim etiladi?

7. Ma'muriy organ arizachiga yordam ko'rsatishi shartmi?

8. Ma'muriy organ arizachining iltimosnomasiga binoan arizadagi xatolarni bartaraf etish uchun muddatni uzaytirishi mumkinmi?

9. Ma'muriy ish qayerda ko'rib chiqilishi lozim?

10. Ma'muriy ishni ko'rib chiqishning majlis bayonnomasida nimalar ko'rsatilishi kerak?

11. Ma'muriy ish yakka tartibda ko'rib chiqilganda majlis bayonnomasi kim tomonidan imzolanadi?

12. Qanday asoslarda ma'muriy ishni ko'rib chiqishni keyinga qoldirilishi mumkin?

13. Ma'muriy ishni ko'rib chiqish tartibini yoriting.

14. Ma'muriy ish yuritishda ishtirok etuvchi manfaatdor shaxslarning iltimosnomalari qaysi ketma-ketlikda ko'rib chiqiladi?

### **Test topshiriqlari:**

1. Ma'muriy ish yuritishni boshlashga nima asos bo'lmaydi?

a) adresatning shikoyatdan voz kechishi

b) manfaatdor shaxsning arizasi

c) manfaatdor shaxsning shikoyati

d) ma'muriy organning tashabbusi

2. Ma'muriy ish yuritish qaysi paytdan e'tiboran boshlangan deb hisoblanadi?

- a) ariza ma'muriy organda ro'yxatdan o'tkazilgan
- b) ariza kelib tushgan kunning ertasidan boshlab
- c) ariza kelib tushgan kunning ertasidan boshlab
- d) bu masala tartibga solinmagan

3. Agar ariza vakil tomonidan berilgan bo'lsa, unga ishonchnomaning yoki vakilning vakolatlarni tasdiqlovchi boshqa hujjatning nimasi ilova qilinishi kerak?

- a) hujjatning elektron shakli
- b) hujjatning ko'chirma nusxasi
- c) hujjatning audioyozuvi
- d) hech qanday hujjat ilova qilinmaydi

4. Ma'muriy organ arizachidan qonunchilikda nazarda tutilmagan hujjatlarni taqdim etishni talab qilishga haqlimi?

- a) ha, haqli
- b) yo'q, haqli emas
- c) vaziyatga qarab
- d) bu masala tartibga solinmagan

5. Jismoniy va yuridik shaxslar arizalarni og'zaki shaklda berishga haqlimi?

- a) ha, haqli
- b) yo'q, haqli emas
- c) bu masala ma'muriy organga havola
- d) bu masala tartibga solinmagan

6. Ma'muriy organga kelib tushgan ariza qaysi muddatda ro'yxatdan o'tkazilishi lozim?

- a) ariza kelib tushgan kunning ertasida
- b) ariza kelib tushgan kunning o'zida
- c) uch kunlik muddatda

d) bu masala tartibga solinmagan

7. Agar arizada to'g'rilash mumkin bo'lgan xatolar mavjud bo'lsa, ma'muriy organ arizachiga qancha muddat berishi lozim?

- a) bir ish kunidan kam bo'lmagan muddat
- b) besh ish kunidan kam bo'lmagan muddat
- c) uch ish kunidan kam bo'lmagan muddat
- d) ariza xatolarini to'g'rilash uchun muddat berilmaydi

8. Arizadagi xatolarni bartaraf etish va yetishmayotgan hujjatlarni taqdim etish vaqtida ma'muriy ish yuritish muddati to'xtatiladimi?

- a) yo'q, to'xtatilmaydi
- b) ha, to'xtatiladi
- c) bu masala ma'muriy organga havola
- d) bu masala tartibga solinmagan

9. Ma'muriy ishni majlisda ko'rib chiqish chog'ida majburiy tartibda qanday hujjat yuritiladi?

- a) ma'lumotnoma
- b) xulosa
- c) bayonnoma
- d) dalolatnoma

10. Manfaatdor shaxslar ma'muriy ish yuritish majlis bayonnomasiga ma'lumotlarni kiritish xususida iltimos qilishga haqlimi?

- a) ha, haqli
- b) yo'q, haqli emas
- c) bu masala ma'muriy organga havola
- d) faqat, majlis yakunlangandan so'ng

11. Qanday asoslar mavjud bo'lsa, ma'muriy organ ma'muriy ishni tegishli tarzda xabardor qilingan manfaatdor shaxsning yo'qligida ko'rib chiqishga haqli?

- a) manfaatdor shaxsning majlisga qatnashishi shart emas

- b) manfaatdor shaxsning uzrsiz majlisga kelmasligi
- c) majlis manfaatdor shaxs ishtirokida o‘tilishi shart
- d) bu masala tartibga solinmagan

12. Manfaatdor shaxslar ma’muriy ishni ular yo‘qligida ko‘rib chiqish xususida qanday hujjat taqdim etishga haqli?

- a) iltimosnoma
- b) buyruq
- c) talab
- d) majlis manfaatdor shaxs ishtirokida o‘tilishi shart

13. Ma’muriy ish yuritish ishtirokchilari bir-biriga savollar berishga haqlimi?

- a) ha, haqli
- b) yo‘q, haqli emas
- c) savollarni faqat ma’muriy organ mansabdor shaxsi beradi
- d) faqat, majlis yakunlangandan so‘ng

14. Ma’muriy organning mansabdor shaxsi ma’muriy ishni majlisda ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha qanday qabul qiladi?

- a) protsessual hujjat
- b) ma’muriy hujjat
- c) qaror
- d) buyruq

### **Amaliy masalalar:**

#### **1-masala**

Uyida mavjud gaz hisoblagichning ishlatish muddati bir necha kundan so‘ng tugashi sababli, fuqaro J. yangi gaz hisoblagich o‘rnatib berishni so‘rab Davlat xizmatlari Markaziga murojaat qildi. Davlat xizmatlari Markazi xodimi fuqaro K.dan elektr energiyasidan foydalanish bo‘yicha qarzdorligi yo‘qligi to‘g‘risida ma’lumotnomani taqdim etishini so‘radi.

**Savol:** Davlat xizmatlari Markazi xodimining harakatini baholang?



Javobingizni O‘zbekiston Respublikasining “Ma‘muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq asoslab bering.

## **2-masala**

Ma‘muriy organga ruxsatnoma olish maqsadida, arizachi nomidan uning do‘sti V. ariza bilan murojaat etdi. Ma‘muriy organning mas‘ul xodimi, fuqaro V.da arizachi nomidan murojaat etish uchun ishonchnoma bo‘lsada, arizada arizachining imzosi yo‘qligi sababli arizani qabul qilmasligini ma‘lum qildi.

**Savol:** Davlat boshqaruvi organi mas‘ul xodimining harakatlari to‘g‘rimi? Qonunga muvofiq, arizaga nisbatan qanday talablar quyiladi.

Javobingizni O‘zbekiston Respublikasining “Ma‘muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq asoslab bering.

## **3-masala**

Kasalligi tufayli, fuqaro K. ma‘muriy organning rasmiy veb-saytiga elektron shaklda ariza yubordi. Ma‘muriy organning mansabdor shaxsi, ariza elektron shaklda yuborilganligini e‘tiborga olib, arizani ertasi kuni ro‘yxatdan o‘tkazdi.

**Savol:** Ma‘muriy organ mansabdor shaxsining harakatlariga baho bering. Ma‘muriy organga elektron shaklda beriladigan arizalarda nimalar ko‘rsatilishi kerak?

Javobingizni O‘zbekiston Respublikasining “Ma‘muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq asoslab bering.

## **4-masala**

Arizaga hujjatlarning asl nusxalari ilova qilinmaganligi sababli, ma‘muriy organ mansabdor shaxsi tomonidan fuqaro G.ning arizasini ro‘yxatdan o‘tkazilishi rad etildi.

**Savol:** Ma‘muriy organ mansabdor shaxsining harakatlariga baho bering. Ma‘muriy organ arizaga va unga ilova qilingan hujjatlarga nisbatan talablar qo‘yishga haqlimi?

Javobingizni O‘zbekiston Respublikasining “Ma‘muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq asoslab bering.

### **5-masala**

Ma'muriy ish yuritish jarayonida, ma'muriy hujjat qabul qilish uchun, fuqaro R.dan yetishmayotgan hujjatlarni uch kunda taqdim etish so'raldi. Yetishmagan hujjatlar to'rtinchi kun taqdim etganligi sababli, mansabdor shaxs fuqaro R.ning arizasini qabul qilishni rad etdi.

**Savol:** Ma'muriy organ mansabdor shaxsining harakatlari qonuniymi? Xatolarni bartaraf etish va yetishmayotgan hujjatlarni taqdim etish uchun ma'muriy organ tomonidan qancha muddat beriladi?

Javobingizni O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq asoslab bering.

### **6-masala**

2023-yil 10-mart kuni kelib tushgan ariza qonunchilikka muvofiq ma'muriy ishlarni ko'rib chiqishga vakolatli bo'lgan ma'muriy organga, shu yilning 10-aprel kuni yuborilganligi haqida arizachiga xabar berildi.

**Savol:** Mazkur xolatga huquqiy baho bering. Ma'muriy ishlarni ko'rib chiqishga vakolatli bo'lgan ma'muriy organga qaysi muddatda ariza yuborilishi kerak?

Javobingizni O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq asoslab bering.

### **7-masala**

Ma'muriy ishni majlisda ko'rib chiqish chog'ida, fuqaro N. tomonidan o'zi muhim deb hisoblaydigan holatlarni majlis bayonnomasiga kiritish xususida iltimos qildi. Majlisga raislik qiluvchi iltimosni rad etdi.

**Savol:** Majlisga raislik qiluvchi iltimosni rad qilishga haqlimi?

Javobingizni O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq asoslab bering.

### **8-masala**

Ma'muriy ishni majlisda ko'rib chiqish yuzasidan manfaatdor bo'lgan fuqaro X. ma'muriy organga ish bo'yicha o'z iltimosi borligini ma'lum qildi.

Biroq ma'muriy organ iltimosni ma'muriy ish boshlangunga qadar bildirish kerakligini aytib iltimosni rad etdi.

**Savol:** Qaysi hollarda ma'muriy ish majlisda ko'rib chiqiladi?

Javobingizni O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq asoslab bering.

### **9-masala**

Majlisga raislik qiluvchi, majlisda faqat raislik qiluvchi savol berishi mumkinligini ta'kidlab fuqaro P.ga majlis ishtirokchilariga savol berishga ruhsat bermadi.

**Savol:** Majlisga raislik qiluvchi haqmi? Ma'muriy ish yuritish ishtirokchilari bir-biriga savollar berishi mumkinmi?

Javobingizni O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq asoslab bering.

### **10-masala**

Majlis jarayonida fuqaro L. ma'muriy ishga oid masala yuzasidan ikkinchi manfaatdor shaxsga savol bermoqchi bo'ldi. Majlisga raislik qiluvchi, manfaatdor shaxslarning iltimosnomalari ko'rib chiqilgandan so'ng savollar berilishi mumkinligini ta'kidladi.

**Savol:** Majlisga raislik qiluvchining harakatlariga baho bering. Ma'muriy ishni majlisda ko'rib chiqish tartibi qanday?

Javobingizni O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq asoslab bering.

## **IV-bob. MA'MURIY HUJJAT**

### **Topshiriq:**

**Quyidagi normativ-huquqiy hujjatlar va yuridik adabiyotlarni o'rganish:**

1. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 8-yanvardagi O'RQ-457-son "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonunning 52-61-moddalari;

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-avgustdagi PF-6044-son "Litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.

### **Nazorat savollari:**

1. Ma'muriy hujjat qaysi shaklda qabul qilinadi?
2. Ma'muriy hujjatda nimalar ko'rsatilishi kerak?
3. Ma'muriy ixtiyoriylik (diskretion vakolat) asosida qabul qilingan ma'muriy hujjatda nimalar nazarda tutilishi kerak?
4. Ma'muriy hujjatning asoslantiruvchi qismida nimalar keltirilishi kerak?
5. Ma'muriy hujjatning dublikati qonunchilikda belgilangan tartibda qaysi hollarda beriladi?
6. Ma'muriy hujjatning dublikatini berganlik uchun arizachi tomonidan qaysi miqdordagi yig'im to'lanadimi?
7. Ma'muriy hujjatning amal qilishi qaysi munosabatlar sababli tugatiladi?
8. Ma'muriy hujjatning amal qilishini tugatish nimaning amal qilishi tugatilishiga olib keladi?
9. Manfaatdor shaxsning ishonchi qaysi hollarda himoya qilinmaydi?
10. Ma'muriy hujjat qaysi hollarda ma'muriy organ tomonidan bekor qilinishi yoki o'zgartirilishi mumkin?

### **Test topshiriqlari:**

1. Ma'muriy hujjatni asoslantirish chog'ida ma'muriy organ qanday dalillarga tayanishga haqli emas?
  - a) tekshirilgan
  - b) tekshirilmagan
  - c) ishtirokchilar tanishgan dalillar
  - d) ishga qo'shib qo'yilgan
  
2. Ma'muriy hujjat qaysi paytdan e'tiboran kuchga kiradi?
  - a) adresat xabardor qilingan kunning ertasidan
  - b) adresat xabardor qilingan paytdan
  - c) bu masala ma'muriy organga havola
  - d) bu masala tartibga solinmagan

3. Ma'muriy hujjat qonunchilik talabiga muvofiq rasmiy e'lon qilinishi lozim bo'lsa, hujjat qaysi kundan e'tiboran kuchga kiradi?

- a) hujjat rasmiy e'lon qilingan kundan
- b) adresat xabardor qilingan kunning ertasidan
- c) bu masala ma'muriy organga havola
- d) bu masala tartibga solinmagan

4. Ariza qabul qilingan kundan e'tiboran necha kundan ko'p bo'lmagan muddatda ma'muriy organ hujjatning dublikatini berishi (yuborishi) shart?

- a) bir ish kundan ko'p bo'lmagan muddatda
- b) besh ish kundan ko'p bo'lmagan muddatda
- c) uch ish kundan ko'p bo'lmagan muddatda
- d) o'n ish kundan ko'p bo'lmagan muddatda

5. Ma'muriy hujjat qonunchilikka muvofiq emas deb topilgan taqdirda, u kim tomonidan bekor qilinishi yoki o'zgartirilishi kerak?

- a) sud
- b) ma'muriy organ
- c) prokuror
- d) profilaktika noziri

6. Manfaatdor shaxsning ishonchi himoya qilinishi lozim bo'lgan hollarda, ma'muriy hujjatni bekor qilish yoki o'zgartirish masalasi qaysi tartibda ko'rib chiqiladi?

- a) sud tartibida
- b) ma'muriy organ tartibida
- c) tuman prokurori tomonidan
- d) bu masala tartibga solinmagan

7. Qonunchilikka muvofiq emas deb topilgan ma'muriy hujjat ma'muriy organ tomonidan ...

- a) ma'muriy organ tomonidan tasdiqlanadi
- b) bekor qilinishi mumkin
- c) bu masala ma'muriy organga havola

d) mazkur masala sudga havola

8. Ma'muriy hujjat qonunda belgilangan tartibda kim tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin?

- a) advokat
- b) prokuror
- c) profilaktika noziri
- d) sud

9. Ma'muriy hujjatni manfaatdor shaxs foydasiga bekor qilishda majlis o'tkaziladimi?

- a) o'tkaziladi
- b) o'tkazilmaydi
- c) o'tkazilishi shart
- d) bu masala tartibga solinmagan

10. Ma'muriy hujjatni manfaatdor shaxs manfaatlariga zid ravishda bekor qilinganda majlis o'tkaziladimi?

- a) o'tkaziladi
- b) o'tkazilmaydi
- c) o'tkazilishi shart emas
- d) bu masala tartibga solinmagan

### **Amaliy masalalar:**

#### **1-masala**

Ma'muriy organ tomonidan chiqarilgan ma'muriy hujjat yuzasidan manfaatdor shaxs bo'lgan fuqaro D. ma'muriy hujjatdan norozi bo'lib o'z fikrini bildirmoqchi bo'ldi. Ma'muriy organ fuqaro D.ga ma'muriy hujjat chiqqunga qadar o'z fikrini bildirishi mumkinligini aytib, fikr bildirish huquqi yo'qligini ta'kidladi.

**Savol:** Ma'muriy organ rahbari haqmi? Manfaatdor shaxslar ma'muriy hujjat yuzasidan o'z fikrlarini bildirishga haqlimi?

Javobingizni O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq asoslab bering.

## 2-masala

Manfaatdor shaxs bo'lgan fuqaro J. ma'muriy organning kollegial tarzda chiqarilgan hujjati kollegiya a'zolarining xammasi imzolanmaganligi sababli kuchga ega emasligini, ushbu ma'muriy hujjatni qayta ko'rib chiqish kerakligini aytib o'z e'tirozini bildirdi. Ma'muriy organning mansabdor shaxsi esa, ma'uriy hujjatni qabul qilish uchun mansabdor shaxsning imzosi yetarli bo'lishini ayti.

**Savol:** Manfaatdor shaxs bo'lgan fuqaro J.ning shikoyati asoslimi? Ma'muriy hujjatga qaysi shaklda tutilishi mumkin? Ma'muriy hujjatni rasmiylashtirishga oid qanday talablar qo'yiladi?

Javobingizni O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq asoslab bering.

## 3-masala

Tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish faoliyati uchun litsenziyani bekor qilish bo'yicha ma'muriy ishda ishtirok etayotgan manfaatdor shaxs fuqaro L.ning qonuniy vakili bo'lgan fuqaro D. ma'muriy organ ma'muriy ish yuritish ishtirokchilarini tanishtirmagan dalillarga tayanib ma'muriy hujjat chiqarganligini sababli, hujjatni bekor qilishni so'radi. Ma'muriy organ esa vakilni bunaqa vakolati yo'qligini ayti.

**Savol:** Manfaatdor bo'lgan fuqaro L.ning qonuniy vakili haqmi? Ma'muriy hujjatni asoslantirishda ma'muriy organ qanday dalillarga tayanishga haqli?

Javobingizni O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq asoslab bering.

## 4-masala

Ma'muriy hujjatni qabul qilishda ma'muriy organ ma'muriy ixtiyoriylik (diskretsion vakolat)dan foydalandi. Manfaatdor bo'lgan fuqaro K. ma'muriy organ bunday vakolatdan foydalanish vajlari va mulohazalarini hujjatda asoslab bayon etmaganligini ta'kidladi.

**Savol:** Manfaatdor bo'lgan fuqaro K. haqmi? Ma'muriy organning ma'muriy ixtiyoriylik (diskretsion vakolat)ga oid qanday talablar quyiladi?

Javobingizni O‘zbekiston Respublikasining “Ma‘muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq asoslab bering.

### **5-masala**

Yo‘qolgan hujjatning dublikatini olish maqsadida, fuqaro G. ma‘muriy organga ariza bilan murojaat etdi. Ma‘muriy organ hujjatning dublikatini berish to‘g‘risidagi ariza qabul qilib, fuqaroga o‘n kundan keyin hujjat dublikatini olib ketishi mumkinligini ta’kidladi.

**Savol:** Ma‘muriy organning harakatlariga baho bering.

Javobingizni O‘zbekiston Respublikasining “Ma‘muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq asoslab bering.

### **6-masala**

Arisizaga ko‘ra, ma‘muriy organ tomonidan berilgan hujjat yuzasidan qilingan harakatlar uchun fuqaro X.dan 46 000 so‘m yig‘im undirildi. Fuqaro X. o‘z beparvoligi oqibatida bu hujjatni yo‘qotdi. Shu bois, hujjatning dublikatini berishlarini so‘rab, ma‘muriy organda ariza bilan murojaat qildi. Ma‘muriy organ tomonidan hujjatning dublikati uchun 50 000 so‘m miqdorida yig‘im to‘lash kerakligi ma‘lum qilindi.

**Savol:** Ma‘muriy organning harakatlari to‘g‘rimi?

Javobingizni O‘zbekiston Respublikasining “Ma‘muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq asoslab bering.

### **7-masala**

Bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyasi yaroqsiz holga kelgach, ushbu hujjatning dublikatini olish maqsadida, fuqaro A. ma‘muriy organga ariza bilan murojaat etdi. Ma‘muriy organ fuqaro A.dan hujjat dublikatini berish to‘g‘risida ariza qabul qilingan sanada amalda bo‘lgan summa miqdorida yig‘im to‘lashini so‘radi.

**Savol:** Ma‘muriy organning harakatlariga baho bering.

Javobingizni O‘zbekiston Respublikasining “Ma‘muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq asoslab bering.

### **8-masala**



Manfaatdor bo‘lgan fuqaro X.ning qonuniy vakili, ma‘muriy hujjatni o‘zi qabul qilgan va o‘z tashabbusiga ko‘ra bekor qilgan ma‘muriy organ ustidan shikoyat qilgan. Shikoyatda, ma‘muriy organ bunday vakolatga ega emasligi vaj sifatida keltirilgan.

**Savol:** Fuqaro X.ning qonuniy vakili shikoyati asoslimi? Ma‘muriy organ o‘zi qabul qilgan ma‘muriy hujjatni o‘z tashabbusiga ko‘ra bekor qilishga yoki o‘zgartirishga haqlimi?

Javobingizni O‘zbekiston Respublikasining “Ma‘muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq asoslab bering.

### **9-masala**

Manfaatdor shaxs bo‘lgan E.ga tegishli bo‘lgan bojxona omborini ta‘sis etish uchun litsenziyani Bojxona qo‘mitasi qonunchilikka muvofiq emas deb bekor qildi. Manfaatdor shaxs bo‘lgan fuqaro E. bunday masalalar sud tartibida ko‘rib chiqilishi kerakligini ta‘kidlab, yuqori turuvchi organga shikoyat qiladi.

**Savol:** Fuqaro G.ning shikoyati asoslimi? Qaysi hollarda ma‘muriy hujjatni bekor qilish yoki o‘zgartirish masalasi sud tartibida ko‘rib chiqiladi?

Javobingizni O‘zbekiston Respublikasining “Ma‘muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq asoslab bering.

### **10-masala**

Ma‘muriy organ fuqaro R.ning manfaatiga zid ravishda boshqa manfaatdor shaxs foydasiga ma‘muriy hujjatni bekor qildi. Ma‘muriy hujjatni bekor qilish masalasi majlisda ko‘rilmaganligi ta‘kidlab, fuqaro R. yuqori turuvchi organga shikoyat qildi.

**Savol:** Fuqaro R.ning shikoyati asoslimi? Ma‘muriy hujjat bekor qilish qaysi hollarda majlis o‘tkazmasdan amalga oshirilishi mumkin?

Javobingizni O‘zbekiston Respublikasining “Ma‘muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq asoslab bering.

### **11-masala**

Ma‘muriy hujjat bekor qilinganligi sababli ma‘muriy organ, ushbu hujjatning asosida buyumlarga egalik qilayotgan fuqaro V.ga mazkur

buyumlarni qaytarib berilishi so‘radi. Fuqaro V. buyumlarni sotib yuborganligini, shu bois ularni qaytarib bermasligini aytdi.

**Savol:** Ma‘muriy organning talabi asoslimi? Qonunda ma‘muriy hujjat bekor qilingan taqdirda uning asosida berilgan hujjatlar, buyumlar va pul mablag‘lariga oid qanday talablar mavjud?

Javobingizni O‘zbekiston Respublikasining “Ma‘muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq asoslab bering.

## **V-bob. MA‘MURIY SHIKOYAT BO‘YICHA ISH YURITISH**

### **Topshiriq:**

**Quyidagi normativ-huquqiy hujjatlar va yuridik adabiyotlarni o‘rganish:**

1. 2018-yil 1-apreldan kuchga kirgan O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksi;

2. O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 8-yanvardagi O‘RQ-457-son “Ma‘muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonunning 62-70-moddalari;

3. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 14-iyuldagi O‘RQ-701-son “Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonunning 29, 32, 57-60-moddalari;

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-avgustdagi PF-6044-son “Litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni;

4. O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 165-moddasi (“Litsenziyalash, ruxsat berish va habardor qilish tartib-taomillari to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish”).

### **Nazorat savollari:**

1. Ma‘muriy shikoyat predmetlarini sanab o‘ting.
2. Ma‘muriy shikoyat berish muddati qaysi organ tomonidan tiklanishi mumkin?
3. Ma‘muriy shikoyatda nimalar ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak?
4. Agar shikoyat vakil tomonidan berilgan bo‘lsa, unga qanday hujjat ilova qilinishi kerak?

5. Ogʻzaki shikoyat qilayotganda yuridik shaxsning vakili qanday hujjatni taqdim etishi kerak?

6. Maʼmuriy shikoyat boʻyicha belgilangan muddatda qaror qabul qilinmagan taqdirda, manfaatdor shaxs qaysi organga shikoyat qilishga haqli?

7. Maʼmuriy shikoyatni chaqirib olish qaysi shaklda rasmiylashtiriladi?

8. Maʼmuriy organ yoki boshqa vakolatli organ maʼmuriy shikoyat boʻyicha qanday qaror qabul qilishi mumkin?

9. Maʼmuriy harakatlar ustidan shikoyat qilinganda yuqori turuvchi maʼmuriy organ muayyan maʼmuriy harakatni amalga oshirish majburiyatini qaysi organning zimmasiga yuklatishi mumkin?

10. Manfaaddor shaxs maʼmuriy shikoyat boʻyicha qabul qilingan qarorga rozi boʻlmagan taqdirda, uning ustidan qaysi organga shikoyat qilishga haqli?

### **Test topshiriqlari:**

1. Maʼmuriy shikoyat predmetiga nima kirmaydi?

- a) maʼmuriy hujjat ustidan shikoyat
- b) sud hukmi oʻstidan shikoyat
- c) protsesual hujjat ustidan shikoyat
- d) maʼmuriy harakatlar ustidan shikoyat

2. Maʼmuriy organ, kelib tushgan paytdan eʼtiboran necha ish kuni ichida maʼmuriy shikoyatni yuqori turuvchi organga yuborishi kerak?

- a) bir ish kuni ichida
- b) uch ish kuni ichida
- c) besh ish kuni ichida
- d) oʻn ish kuni ichida

3. Manfaaddor shaxs maʼmuriy hujjat toʻgʻrisida xabardor qilingan paytdan boshlab necha kundan kechiktirmay shikoyat berishi mumkin?

- a) oʻn kun
- b) bir kun
- c) besh kun
- d) oʻttiz kun

4. Ma'muriy shikoyat qaysi shaklda berilishi mumkin emas?
- a) norasmiy shaklda
  - b) yozma shaklda
  - c) og'zaki shaklda
  - d) elektron shaklda
5. Jismoniy shaxs og'zaki shikoyat qilayotganda qanday hujjatni taqdim etishi kerak?
- a) shaxsning rangli rasmi
  - b) hech qanday hujjat taqdim etilmaydi
  - c) o'z shaxsini tasdiqlovchi hujjat
  - d) bu masala tartibga solinmagan
6. Elektron shaklda beriladigan shikoyatlarda arizachining qanday rekvizitlari ko'rsatilmaydi?
- a) elektron manzili
  - b) elektron dastur
  - c) elektron raqamli imzo
  - d) elektron yagona identifikatori
7. Ma'muriy shikoyatni ko'rib chiqish chog'ida yuqori turuvchi ma'muriy organ ma'muriy ishni qaysi hajmda ko'rib chiqadi?
- a) adresatning arizasi
  - b) faqat shikoyatdagi ma'lumot
  - c) to'liq hajmda
  - d) faqat protsessual hujjatlar
8. Yuqori turuvchi ma'muriy organ ma'muriy shikoyat bo'yicha qancha muddat ichida qaror qabul qilishi shart?
- a) o'ttiz ish kuni
  - b) o'n ish kuni
  - c) besh ish kuni
  - d) bir ish kuni

9. Manfaaddor shaxs qachongacha bergan ma'muriy shikoyatni chaqirib olishga haqli?

- a) shikoyat bo'yicha qaror qabul qilingandan so'ng
- b) shikoyat bo'yicha qaror qabul qilinguniga qadar
- c) manfaaddor shaxs shikoyatni chiqarib olishga haqli emas
- d) bu masala tartibga solinmagan

10. Manfaaddor shaxs ma'muriy shikoyat bo'yicha qabul qilingan qarorga rozi bo'lmagan taqdirda, uning ustidan qancha muddat ichida sud tartibida shikoyat qilishga haqli?

- a) o'ttiz kalendar kun ichida
- b) o'n kalendar kun ichida
- c) besh kalendar kun ichida
- d) bir kalendar kun ichida

11. Ma'muriy hujjat qabul qilingan kundan e'tiboran necha kun ichida uni tegishli tarzda bajarmasa, manfaaddor shaxs shikoyat qilishga haqli bo'ladi?

- a) besh kun ichida
- b) o'n kun ichida
- c) uch kun ichida
- d) bir kun ichida

### **Amaliy masalalar:**

#### **1-masala**

D. ismli fuqaro sudga hokimiyat harakatlari ustidan shikoyat qildi. O'z shikoyatida fuqaro D., O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 3-dekabrdagi 378-son "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi qonunning 19-moddasida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish muddati 15 kun deb belgilab qo'yilganiga qaramasdan, tuman hokimi U.ning o'z yer uchastkasida qurilish qilish bo'yicha so'roviga xech qanday munosabat bildirmaganini ma'lum qilgan.

**Savol:** Ushbu holatda fuqaro D.ning harakatlari to'g'rimi?

Javobingizni O‘zbekiston Respublikasining “Ma‘muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq asoslab bering.

## **2-masala**

Ma‘muriy hujjat yuzasidan murojaat etgan fuqaro Z., uni haqorat qilgan davlat boshqaruvi organi rahbari ustidan, yuqori turuvchi organlarga ma‘muriy tartibda shikoyat qildi. Yuqori turuvchi organ mas‘ul xodimi, mazkur xolat yuzasidan shikoyatni qabul qilishni rad etdi.

**Savol:** Yuqori turuvchi organ mas‘ul xodimining harakatlari to‘g‘rimi?

Javobingizni O‘zbekiston Respublikasining “Ma‘muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq asoslab bering.

## **3-masala**

Ma‘muriy hujjat yuzasidan fuqaro N.ning shikoyati o‘z vaqtida berilmagani sababli, ma‘muriy organ tomonidan shikoyatni qabul qilinishi rad etildi. Bunga, fuqaro N. kasalxonada yotib davolanganligi haqida ma‘lumotnoma taqdim etdi. Shunga qaramay, ma‘muriy organ o‘z qarorini o‘zgarmadi va shikoyatni qabul qilmadi.

**Savol:** Ushbu holatga huquqiy baho bering? Ma‘muriy shikoyat berish muddati qaysi hollarda tiklanishi mumkin?

Javobingizni O‘zbekiston Respublikasining “Ma‘muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq asoslab bering.

## **4-masala**

Manfaatdor shaxsning vakilining vakolatlarini tasdiqlovchi hujjatning ko‘chirma nusxasi ilova qilinmaganligi sababli, ma‘muriy organ tomonidan vakilning taqdim etgan ma‘muriy shikoyati qabul qilinmadi.

**Savol:** Ma‘muriy organning harakatlari to‘g‘rimi? Ma‘muriy shikoyat va mazmuniga qanday talablar mavjud?

Javobingizni O‘zbekiston Respublikasining “Ma‘muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq asoslab bering.

## **5-masala**

O‘zining oilaviy ahvoli haqida ma’lumot bermaganligi sababli, ma’muriy hujjat yuzasidan fuqaro X.ning shikoyati ma’muriy organ tomonidan qabul qilinishi rad etildi.

**Savol:** Ma’muriy organ ma’muriy shikoyatga bunday talablar qo‘yishga haqlimi?

Javobingizni O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq asoslab bering.

### **6-masala**

Manfaatdor shaxs fuqaro X.ning qonuniy vakili, ma’muriy hujjat yuzasidan o‘n besh kun avval berilgan shikoyat yuzasidan ma’muriy organ tomonidan hech qanday qaror qabul qilinmaganligini ta’kidlab tumanlararo ma’muriy sudga shikoyat qildi.

**Savol:** Manfaatdor shaxs X.ning qonuniy vakilining harakatlari to‘g‘rimi? Qaysi hollarda ma’muriy hujjat, protsessual hujjat yoki ma’muriy harakat ustidan sud tartibida shikoyat qilinadi?

Javobingizni O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq asoslab bering.

### **7-masala**

Turizm faoliyatini litsenziyalash jarayonida, ma’muriy organ fuqaro G.dan turoperator xizmatlarini sertifikatlashni talab qildi. Fuqaro G. ma’muriy organ harakati ustidan tumanlararo ma’muriy sudga murojaat qildi. Ma’muriy sud G.ning murojaatini rad etib, birinchi yuqori tururchi ma’muriy organga murojaat qilish kerakligini ayti.

**Savol:** Fuqaro G.ning shikoyati asoslimi?

Javobingizni O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-avgustdagi PF-6044-son “Litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoniga muvofiq asoslab bering.

### **8-masala**

Ma’muriy hujjat yuzasidan shikoyat bergan fuqaro Z. o‘z shikoyatini chaqirib olish yuzasidan ariza berdi. Ma’muriy shikoyat bo‘yicha qaror qabul

qilinmagan bo'lsada, ma'muriy organ shikoyatni chaqirib olish mumkin emasligini ta'kidladi.

**Savol:** Ma'muriy organning harakatlari to'g'rimi?

Javobingizni O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq asoslab bering.

### **9-masala**

Yuqori turuvchi organ tomonidan, ma'muriy hujjat yuzasidan shikoyat bo'yicha, manfaatdor fuqaro V.ga qo'shimcha ravishda to'lovlarni amalga oshirishni va qaytadan shikoyat qilish yuzasidan qaror qabul qilindi. Qarordan norozi bo'lgan fuqaro A. sudga murojaat etdi.

**Savol:** Manfaatdor fuqaro V.ning shikoyati asoslimi?

Javobingizni O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq asoslab bering.

### **10-masala**

Ma'muriy organ tomonidan shikoyat ro'yxatdan o'tkazilgan bo'lsada, uning ijro etilishi to'xtatilmaganligi xususida Ofuqaro J. e'tiroz bildirdi. Ma'muriy organ fuqaro J.ning e'tirozini qabul qilmasligini aytib, ijro ishi davom etishini ayti.

**Savol:** Fuqaro J.ning e'tirozi asoslimi?

Javobingizni O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq asoslab bering.

### **11-masala**

Veterinariya faoliyati uchun litsenziyani bekor bo'lgan fuqaro N. 2023-yil 15-mart kuni ma'muriy organga murojaat qildi. Oradan 5 kun o'tib, fuqaro N. o'z arizasini qaytarib oldi. Ma'muriy organ esa, fuqaro harakatlaridan norozi bo'ldi.

**Savol:** Ma'muriy organning e'tirozi asoslimi?

Javobingizni O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq asoslab bering.



## **VI-bob. IJRO ISHINI YURITISH**

### **Topshiriq:**

**Quyidagi normativ-huquqiy hujjatlar va yuridik adabiyotlarni o‘rganish:**

1. O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 8-yanvardagi O‘RQ-457-son “Ma‘muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonunning 71-83-moddalari;

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-avgustdagi PF-6044-son “Litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.

### **Nazorat savollari:**

1. Qaysi organ ma‘muriy hujjatning ijrosini ta‘minlaydi?
2. Ma‘muriy organ tomonidan ma‘muriy hujjatni ixtiyoriy ijro etishda nimalar ta‘minlanishi kerak?
3. Qabul qilinayotgan ma‘muriy hujjat yoki amalga oshirilayotgan ma‘muriy harakat o‘ziga qaratilgan shaxsga kim deb yuritiladi?
4. Ma‘muriy hujjatni majburiy ijro etish qaysi tartibda amalga oshiriladi?
5. Ma‘muriy organ tomonidan qo‘llanishi mumkin bo‘lgan majburiy ijro choralari sanab o‘ting.
6. Ma‘muriy organ majburiy ijro chorasini tayinlashda nimalarga amal qilishi kerak?
7. Ma‘muriy organ qaysi holda og‘irroq majburlov chorasini qo‘llashga haqli?
8. Ma‘muriy organning ijro hujjati qaysi shaklda qabul qilinadi?
9. Ma‘muriy organ majburiyatli shaxsga majburiy ijro choralari qo‘llash to‘g‘risida ogohlantirib yuborishi mumkinmi?
10. Ma‘muriy organ tomonidan ma‘muriy hujjat bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarmaslik oqibatlarini ayting.
11. Ma‘muriy hujjatni majburiy ijro etish bo‘yicha qilingan xarajatlarning o‘rni kimning hisobidan qoplanadi?

### Test topshiriqlari:

1. Ma'muriy organ tomonidan ma'muriy hujjatni ixtiyoriy ijro etish qaysi muddatdan kam bo'lmasligi kerak?

- a) bir kalendar kun
- b) uch kalendar kun
- c) besh kalendar kun
- d) muddat belgilanmagan

2. O'z majburiyatlarini ixtiyoriy ravishda bajarayotgan shaxsga nisbatan ma'muriy hujjatni majburiy ijro etish choralari qo'llanilishi mumkinmi?

- a) mumkin emas
- b) mumkin
- c) ma'muriy organga havola
- d) bu masala tartibga solinmagan

3. Ma'muriy organ qonunda nazarda tutilgan hollarda qanday majburiy ijro choralari qo'llashga haqli?

- a) ruhiy bosim qilish
- b) qamoqqa olish
- c) bevosita majburlov
- d) o'y qamog'i

4. Majburiy ijro chorasi ma'muriy organning qaysi hujjati bilan rasmiylashtiriladi?

- a) talab hujjati
- b) ijro hujjati
- c) buyruq
- d) qaror

5. Majburiy ijro etilishini talab qilayotgan shaxsga ma'muriy organning ijro hujjati qaysi muddatda yuborilishi kerak?

- a) bir ish kuni ichida
- b) ikki ish kuni ichida
- c) uch ish kuni ichida

d) besh ish kuni ichida

6. Ijro ishini yuritishda ma'muriy hujjat bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganligi uchun o'ziga nisbatan ijro hujjati qabul qilgan adresat kim?

- a) majburiyatli shaxs
- b) undiruvchi shaxs
- c) uchinchi shaxs
- d) manfaatdor shaxs

7. Ijro hujjati qaysi shaxsning foydasiga qabul qilingan bo'lsa, o'sha shaxs qanday nomlanadi?

- a) undiruvchi shaxs
- b) majburiyatli shaxs
- c) uchinchi shaxs
- d) javobgar shaxs

8. Majburiyatli shaxs qaysi paytdan boshlab ijro hujjatini ijro etishi kerak?

- a) hujjat chiqarilgan kunning ertasida
- b) hujjat qabul qilingan paytdan
- c) xabardor qilingan paytdan
- d) bu masala tartibga solinmagan

9. Ijro hujjati tegishli tarzda xabardor qilish imkonsizligi fakti rasmiylashtirilgan paytdan e'tiboran qaysi muddatda hujjat kuchga kiradi va ijro etiladi?

- a) bir kun o'tgach
- b) ikki kun o'tgach
- c) uch kun o'tgach
- d) besh kun o'tgach

10. Pulga oid majburlov undirilishi lozim bo'lgan muayyan summani tayinlashda yoki o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun nimani to'lashda ifodalanishi mumkin?

- a) foiz
- b) jarima
- c) undiruv
- d) penya

11. Ma'muriy organ majburiyatli shaxsga ma'muriy hujjatni ixtiyoriy ijro etish uchun qo'shimcha muddat belgilashi mumkinmi?

- a) ha, mumkin
- b) yo'q, mumkin emas
- c) yo'q, hujjat ijro eitmasa majburiy chora qo'llaniladi
- d) bu masala tartibga solinmagan

12. Majburiyatli shaxs qo'shimcha muddatda o'z majburiyatlarini bajarmasa, ma'muriy organ majburiy ijro chorasini qaysi muddatda qo'llaydi?

- a) o'n ish kuni ichida
- b) besh ish kuni ichida
- c) uch ish kuni ichida
- d) bir ish kuni ichida

### **Amaliy masalalar:**

#### **1-masala**

Birja faoliyati uchun litsenziyani tugatish bo'yicha chiqqan ma'muriy hujjatni ixtiyoriy ijro etish uchun, ma'muriy organ tomonidan adresatga uch kun muddat belgilandi. Adresat bu muddatdan norozi ekanligini aytib, yuqori ma'muriy organgan murojaat qildi.

**Savol:** Ma'muriy organning harakatlariga baho bering. Ma'muriy hujjatni ixtiyoriy ijro etish muddati qachondan e'tiboran hisoblanadi?

Javobingizni O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonuni va boshqa qonun hujjatlari asosida asoslab bering.

#### **2-masala**

Fuqaro Z. kredit byuro faoliyati bo'yicha litsenziya olish uchun murojaat qildi va ma'muriy organ bu holatda kamida 10ta tijorat banki bilan

kredit almashuvini amalga oshirishga roziligini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etishni so‘radi. Fuqaro Z. bu holatdan norozi bo‘ldi.

**Savol:** Ma‘muriy organ talabi asoslimi?

Javobingizni O‘zbekiston Respublikasining “Ma‘muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonuni va boshqa qonun hujjatlari asosida asoslab bering.

### 3-masala

Manfaatdor shaxs V. to‘lov tizimlari operatorining faoliyati bo‘yicha litsenziya muddatini uzaytirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga murojaat qildi. Ma‘muriy organ talabgor V.dan uning kommunal xizmatlar bo‘yicha qarzdorligi mavjudligi sababli, muayyan faoliyat bilan shug‘ullanish uchun litsenziyani uzaytirishni rad etdi.

**Savol:** Ma‘muriy organ harakati to‘g‘rimi?

Javobingizni O‘zbekiston Respublikasining “Ma‘muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonuni va boshqa qonun hujjatlari asosida asoslab bering.

### 4-masala

Tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilish faoliyatini litsenziyalash bo‘yicha murojaat etgan fuqaro Sh. ma‘muriy organdan, xuddi shunday faoliyat bilan shug‘ullanuvchi tashkil etilgan filiallarga alohida litsenziya rasmiylashtirishni so‘radi. Ma‘muriy organ fuqaro Sh.ning iltimosini rad etdi.

**Savol:** Fuqaro Sh.ning iltimosnomasi asoslimi? Ma‘muriy organ harakatlari to‘g‘rimi?

Javobingizni O‘zbekiston Respublikasining “Ma‘muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonuni va boshqa qonun hujjatlari asosida asoslab bering.

### 5-masala

Yer qa‘ri (osti) uchastkalaridan foydalanish huquqi uchun litsenziya olishni so‘rab talabgor Y. murojaat qildi. Vakolatli ma‘muriy organ bu soha bilan shug‘ullanishda litsenziya olish uchun hududdagi mahalliy davlat hokimiyati organlarining kafolat xatlarini olishni talab qildi.

**Savol:** Ma‘muriy organ talabi asoslimi?

Javobingizni O‘zbekiston Respublikasining “Ma‘muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonuni va boshqa qonun hujjatlari asosida asoslab bering.

## 6-masala

Ma'muriy organ tomonidan, adresatga o'zining arizasiga ko'ra chiqarilgan ma'muriy hujjatda belgilangan harakatlarni, ma'muriy organga maqbul bo'lgan usulda bajarishi lozimligi ta'kidlandi. Adresat ma'muriy organ talablariga rioya qilmadi va e'tiroz bildirdi.

**Savol:** Ma'muriy organning harakatlari to'g'rimi? Adresat e'tirozi asoslimi?

Javobingizni O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonuni va boshqa qonun hujjatlari asosida asoslab bering.

## 7-masala

Adresat V. ma'muriy hujjatni ixtiyoriy ravishda imkon qadar bajarishga harakat qildi, biroq tegishli tarzda va tegishli muddatda bajara olmadi. Shu bois, ma'muriy organ adresatga nisbatan ma'muriy hujjatning majburiy ijro etilishi yuzasidan pulga oid majburlov chorasi qulladi.

**Savol:** Mazkur xolatda ma'muriy organning harakatlari to'g'rimi?

Javobingizni O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonuni va boshqa qonun hujjatlari asosida asoslab bering.

## 8-masala

Majburiy ijro chorasi qo'llanishiga qaramay, majburiyatli shaxs tomonidan ma'muriy hujjat bo'yicha o'z majburiyatlarini tegishli tarzda qayta qasddan bajarilmadi. Shu bois, ma'muriy organ adresatga nisbatan og'irroq majburlov chorasini qulladi. Majburiyatli shaxs bundan norozi bo'lib, yuqori turuvchi ma'muriy organgan murojaat qildi.

**Savol:** Mazkur xolatda ma'muriy organning harakatlari to'g'rimi?

Javobingizni O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonuni va boshqa qonun hujjatlari asosida asoslab bering.

## 9-masala

Ma'muriy hujjatga oid harakatni bajarish uchun ma'muriy organ boshqa shaxsni jalb etdi va ushbu harakatlarga ketgan harajatlarni majburiyatli shaxs hisobidan qopladi. Ushbu xolatdan norozilik bildirgan majburiyatli shaxs shikoyat bilan murojaat etdi.

**Savol:** Majburiyatli shaxs shikoyati asoslimi? Ma'muriy hujjatning ijrosini ta'minlovchi organ ushbu harakatni majburiyatli shaxs hisobidan o'zi amalga oshirishga haqlimi?

Javobingizni O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonuni va boshqa qonun hujjatlari asosida asoslab bering.

### **10-masala**

Ma'muriy hujjatning ijrosini ta'minlovchi organ majburiyatli shaxsni ma'muriy hujjat bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishga ko'maklashish uchun boshqa davlat organiga murojaat qildi.

**Savol:** Qonunga muvofiq ma'muriy organ ijro hujjatlarini ijrosini ta'minlash uchun boshqa organlarga murojaat etishga haqlimi?

Javobingizni O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonuni va boshqa qonun hujjatlari asosida asoslab bering.

### **11-masala**

Majburiyatli shaxs J. tomonidan ma'muriy hujjat ixtiyoriy ijro etilmaganligi sababli, unga nisbatan ma'muriy organ tomonidan majburlov chorasi qo'llanildi. Ushbu xolatdan norozilik bildirgan majburiyatli shaxs J. ma'muriy hujjat haqida habardor bo'lmaganligini ta'kidlab, yuqori turuvchi organga shikoyat bilan murojaat etdi.

**Savol:** Majburiyatli shaxs J.ning shikoyati asoslimi? Qonunda majburlov ijro choralari qo'llash uchun qanday shartlar mavjud?

Javobingizni O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonuni va boshqa qonun hujjatlari asosida asoslab bering.

### **12-masala**

Ma'muriy organ uzi tomonidan qabul qilgan va bajarishi lozim bo'lgan ma'muriy hujjatni bajarmaganligi ustidan manfaatdor shaxs E. shikoyat qildi. Shikoyatda, manfaatdor shaxs E. ma'muriy hujjatning qabul qilinganligiga bir hafta o'tgan bo'lsada, ma'muriy organ tomonidan hech qanday harakatlar qilinmaganligi ta'kidlandi. Yuqori turuvchi organ tomonidan shikoyat asosli emas deb topildi.

**Savol:** Yuqori turuvchi organning qarori to'g'rimi?

Javobingizni O‘zbekiston Respublikasining “Ma‘muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonuni va boshqa qonun hujjatlari asosida asoslab bering.

## **VII-bob. YAKUNLOVCHI QOIDALAR**

### **Topshiriq:**

**Quyidagi normativ-huquqiy hujjatlar va yuridik adabiyotlarni o‘rganish:**

1. O‘zbekiston Respublikasi 2018-yil 8-yanvardagi O‘RQ-457-son “Ma‘muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonunning 84-88-moddalari;

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi PQ-3666-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorining 1, 9, 10, 12-bandlari;

3. O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 165-moddasi (“Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish”);

4. O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 241<sup>5</sup>-moddasi (“Litsenziyalash to‘g‘risidagi qonunchilikni va ruxsat berish tartib-taomillari to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish”);

5. O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 245<sup>9</sup>-moddasi (“Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari sohasidagi vakolatli organlar”);

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-avgustdagi PF-6044-son “Litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni;

7. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2018-yil 19-maydagi 15-son “Ma‘muriy ishlarni ko‘rishda birinchi instansiya sudi tomonidan protsessual qonun normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi qarori.

### **Nazorat savollari:**

1. Ma‘muriy tartib-taomillar to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlik huquqiy oqibatini ayting.



2. O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 165-moddasi (“Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish”) bo‘yicha javobgarlikka tortish uchun shaxsning aybi qanday bo‘lishi kerak (qasd yoki extiyotsizlik)?

3. O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 165-moddasi (“Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish”) bo‘yicha aybdorga nisbatan qaysi organ tomonidan jarima solinadi?

4. O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 241<sup>5</sup>-moddasi (“Litsenziyalash to‘g‘risidagi qonunchilikni va ruxsat berish tartib-taomillari to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish”) bo‘yicha ma‘muriy javobgarlik shartlarini aniqlang.

5. “Ma‘muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonunning ijrosi, ijrochilarga yetkazilishi hamda mohiyati va ahamiyati haqidagi tushuntirish qaysi organlar tomonidan ta‘minlanadi?

6. Hukumat qarorlarini “Ma‘muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiqlashtirish qaysi davlat organi tomonidan amalga oshiriladi?

7. “Ma‘muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonunga zid bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlari bo‘yicha davlat boshqaruvi organlari qanday harakatlarni amalga oshirishlari kerak?

8. O‘zbekiston Respublikasi “Ma‘muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonuni qachondan boshlab kuchga kirgan?

### **Test topshiriqlari:**

1. Ma‘muriy organlar faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga oluvchi ma‘muriy reglamentlar qaysi organ tomonidan tasdiqlanadi?

- a) Bosh prokuratura
- b) Vazirlar Mahkamasi
- c) Adliya vazirligi
- d) Tuman (shahar) xokimi

2. “Ma‘muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonunning ijrosi, ijrochilarga yetkazilishi hamda mazmun-mohiyatini tushuntirish vazifasi qaysi organga yuklatilgan?

- a) Advokatura idoralari
- b) Nodavlat notijorat tashkilotlar
- c) Adliya vazirligi
- d) Notariat idoralari

3. Qonunchilikni “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiqlashtirish qaysi davlat organi tomonidan amalga oshiriladi?

- a) Vazirlar Mahkamasi
- b) Bosh prokuror
- c) Adliya vazirligi
- d) Ichki ishlar vazirligi

4. Hukumat qarorlarini “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiqlashtirish qaysi organga yuklatilgan?

- a) Adliya vazirligi
- b) Bosh prokuror
- c) Vazirlar Mahkamasi
- d) Ichki ishlar vazirligi

5. “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonunga zid bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlari bo‘yicha davlat boshqaruvi organlarining harakatlaridan birini aniqlang.

- a) hujjatni faoliyatda qo‘llash
- b) hujjatni tasdiqlash
- c) hujjatga oid ichki me’yorlarni ishlab chiqish
- d) hujjatni qayta ko‘rib chiqish

### **Amaliy masalalar:**

#### **1-masala**

Fuqaro G.ning beparvoligi sababli, muayyan faoliyat uchun belgilangan shartlar bajarilganligi to‘g‘risida ma’muriy organga yolg‘on axborot taqdim etildi. Shu bois, vakolatli organ tomonidan fuqaro G. O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 165-moddasi bo‘yicha ma’muriy javobgarlikka tortildi.

**Savol:** Fuqaro G. ma'muriy javobgarlikka tortilishi asoslimi?

Javobingizni O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga muvofiq asoslab bering.

## 2-masala

Xabardor qilish tartibida amalga oshirilishi lozim bo'lgan faoliyat bilan xabarnoma yubormasdan shug'ullangan fuqaro J. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 241<sup>5</sup>-moddasi ("Litsenziyalash to'g'risidagi qonunchilikni va ruxsat berish tartib-taomillari to'g'risidagi qonunchilikni buzish") bo'yicha ma'muriy javobgarlikka tortildi. Bundan norozi bo'lgan fuqaro J. yuqori turuvchi organga shikoyat bilan murojaat etdi. Yuqori turuvchi organ shikoyatni asosli deb topmadi va murojlatni rad etdi.

**Savol:** Fuqaro J. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 241<sup>5</sup>-moddasi bo'yicha asosli ravishda ma'muriy javobgarlikka tortiladimi?

Javobingizni O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga muvofiq asoslab bering.

## 3-masala

Amalga oshirilishi uchun ruxsat talab etiladigan faoliyat (harakatlar) bilan hujjatsiz shug'ullangan fuqaro K. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 168-moddasida nazarda tutilgan firibgarlik bo'yicha jinoiy javobgarlikka tortildi. Advokat fuqaro K.ning harakatlariga noto'g'ri huquqiy baho berilganligini ta'kidlab shikoyat bilan yuqori turuvchi organga murojaat etdi.

**Savol:** Advokatning shikoyati asoslimi?

Javobingizni O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga muvofiq asoslab bering.

#### 4-masala

Litsenziya hujjatini olmoqchi bo'lgan fuqaro L.dan OITSGa kasallanmaganligi haqida ma'mlumotnomani taqdim etishini so'raganligi sababli, ma'muriy organ mansabdor shaxsi ustidan tegishli modda bo'yicha ma'muriy javobgarlikka tortish yuzasidan Jinoyat ishlari bo'yicha tuman sudiga ariza qildi. Jinoyat ishlari bo'yicha tuman sudi Raisi arizani qabul qilishni rad etdi.

**Savol:** Jinoyat ishlari bo'yicha tuman sudi Raisi harakatlari to'g'rimi? Mazkur holda ma'muriy organ mansabdor shaxsining qilmishida ma'muriy huquqbuzarlik bormi?

Javobingizni O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga muvofiq asoslab bering.

#### 5-masala

Vakolatli ma'muriy organ rahbari tomonidan, litsenziyalanishi lozim bo'lgan faoliyat bilan litsenziyasiz shug'ullanganligi uchun fuqaro Z.ga nisbatan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida bayonnoma tuzilib, unga bazaviy hisoblash miqdorining o'n besh baravari miqdorda jarima solindi.

**Savol:** Vakolatli organ rahbarining harakatlari qonuniymi?

Javobingizni O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga muvofiq asoslab bering.

## **TAVSIYA ETILADIGAN NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR VA YURIDIK ADABIYOTLAR**

### **Normativ-huquqiy hujjatlar:**

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi/<https://lex.uz/docs/-6445145>

O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi/ <https://lex.uz/docs/97664>

O‘zbekiston Respublikasining 1993-yil 2-sentyabrdagi 913-XII-son “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni/ <https://lex.uz/docs/112170>

O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 14-iyuldagi O‘RQ-701-son “Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonuni/ <https://lex.uz/docs/5511879>

O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 8-yanvardagi O‘RQ-457-son “Ma‘muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi qonuni/ <https://lex.uz/docs/3492199>.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi PF-5415-son “Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va muassasalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni/<https://lex.uz/docs/3681777>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-avgustdagi PF-6044-son “Litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni/<https://lex.uz/docs/4966394>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni/ <https://lex.uz/docs/5841063>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi PQ-3666-son “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori/<https://lex.uz/docs/3681790>

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-apreldagi 218-son “Mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlarni ishlab chiqish, kelishish va ro‘yxatdan o‘tkazishning

yagona elektron tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori/  
<https://lex.uz/docs/4787645>

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2018-yil 19-maydagi 15-son “Ma‘muriy ishlarni ko‘rishda birinchi instansiya sudi tomonidan protsessual qonun normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi qarori/<https://lex.uz/ru/docs/3761216>

«O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan otinoyilarga maxsus litsenziyalar berish tartibi» (ro‘yxat raqami 978)/ <https://lex.uz/docs/769051>

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 25-apreldagi 238-sonli “Aholiga transport xizmati ko‘rsatish hamda shaharlar va qishloqlarda avtobuslarda yo‘lovchilar tashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish to‘g‘risida”gi qarorining 6-bandi ikkinchi xatboshisi/ <https://lex.uz/docs/3182142>

### **Yuridik adabiyotlar:**

Yejegodnik publichnogo prava 2021. Instrumenty deystviya administrativnykh organov. – M.: Infotropik Media, 2021. – 396 s.

Erkin Xojiyev. Ma‘muriy jarayon (ilmiy-nazariy qarashlar, qonunchilik tahlili, mavjud muammolar, isloh etishy o‘llari). O‘quv qo‘llanma. –T.: Adabiyotuchqunlari, 2016. – 276 b.

Ma‘muriy huquq: Darslik /N.T.Ismoilov, O‘.X.Muxamedov, A.S.Tursunov va boshq.; Sh.T. Ikramov va I.A. Xamedov tahriri ostida. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. – 532 b.

## MUNDARIJA

Kirish .....	3
I-bob. Umumiy qoidalar .....	4
II-bob. Ma'muriy tartib-taomillar prinsiplarining qo'llanilishi .....	10
III-bob. Ma'muriy ish yuritish .....	20
IV-bob. Ma'muriy hujjat .....	27
V-bob. Ma'muriy shikoyat bo'yicha ish yuritish .....	34
VI-bob. Ijro ishini yuritish .....	40
VII-bob. Yakunlovchi qoidalar .....	47
Tavsiya etiladigan normativ-huquqiy hujjatlar va yuridik adabiyotlar .....	53

Shakurov Rafik Ravilyevich  
Raxmonov Zafarjon Zayniddinovich

**Ma'muriy tartib-taomillarni amalga  
oshirishga oid masalalar to'plami**  
(O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar  
to'g'risida"gi Qonuni asosida)

O'quv-amaliy qo'llanma

Muharrir: M.Tolipova

Bosishga ruxsat etildi: 08.06.2023  
Bichimi: 60×90 1/16 "Times New Roman"  
Garniturada 15 raqamli bosma usulda bosildi  
Shartli bosma tabog'i 3,5. Adadi.100, Buyurtma №74

"TOP IMAG'E MEDIA"  
bosmaxonasida chop etildi.